

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MOHIYATI

Xayrullayeva Marjona Ozodbek qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti,

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va ularni o'qitish jarayoniga joriy etish usullari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, maqolada boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan turli innovatsion texnologiyalar, jumladan, ta'limiy ilovalar, raqamli o'qitish platformalari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich ta'lim, innovatsion texnologiyalar, interaktiv yondashuv, ta'limiy ilovalar, virtual haqiqat, ta'lim samaradorligi, o'quvchilarning qiziqishi, zamonaviy ta'lim usullari, interfaol metodlar.

Kirish. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi ta'lim faoliyatiga mustahkam poydevor bo'lib, bu davrda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar bolalarning shaxsiy va intellektual rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolaning maqsadi boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi, ularning samaradorligi va istiqbollari haqida ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Pedagogik texnologiyalar – bu o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan turli xil usul va vositalar majmuasi. Ular ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarni qiziqtirish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

1Mashkura Muxtor Qizi Sayliyeva BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-limda-innovatsion-texnologiyalardan-foydalanish-usullari> (дата обращения: 06.06.2024).

Pedagogik texnologiyalar bir nechta turlarga bo'linadi, ularning har biri o'ziga xos xususiyat va yondashuvlarga ega.

Boshlang'ich ta'limda quyidagi pedagogik texnologiyalardan qo'llanilish tavsiya etilishi mumkin:

Modulli ta'lim texnologiyasi - o'quv dasturini modullar, ya'ni mantiqiy bog'langan, mustaqil o'quv birliklariga ajratish orqali amalga oshiriladi. Har bir modul muayyan maqsadga yo'naltirilgan va mustaqil ravishda o'zlashtirilishi mumkin. Bu texnologiya o'quvchilarga o'z o'quv jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi.

O'z-o'zini boshqarish texnologiyasi - o'z-o'zini boshqarish texnologiyasi o'quvchilarni mustaqil faoliyatga jalb etish va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu usulda o'quvchilar o'z o'quv jarayonini rejalashtiradi, nazorat qiladi va baholaydi.

Elektron ta'lim texnologiyalari - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish orqali ta'lim jarayonini tashkil etish elektron ta'lim texnologiyalarini tashkil etadi. Bu texnologiya masofaviy ta'lim, elektron darsliklar va interfaol ta'lim resurslarini o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchilar uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi.

Loyihaviy ta'lim texnologiyasi - loyihaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning amaliy faoliyati va ijodiy izlanishlariga asoslangan ta'lim usuli bo'lib, o'quvchilar kichik guruhlarda yoki individual ravishda loyihalarni bajaradi. Bu usul o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'yinli ta'lim texnologiyalari - o'yinli ta'lim texnologiyalari darslarni o'yin shaklida tashkil etish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularga o'quv materialini osonroq o'zlashtirish imkonini beradi. Bu texnologiya o'quvchilarning faolligini va ijodkorligini rivojlantiradi.

Kooperativ ta'lim texnologiyasi - Kooperativ ta'lim texnologiyasi guruh bo'lib ishlash va hamkorlikda muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan. Bu usul o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalarning samaradorligi - Pedagogik texnologiyalar o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. Pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, texnologiyalar o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi².

²<https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/download/513/985>

Ta'lim sohalarning modernizatsiyalashuvi uzluksiz ta'lim taraqqiyoti va shaxsning kasbiy faoliyati yetukligi, axloqiy barkamolligi, kasbiy psixologik xususiyatlarining shakllanishi masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jarayonda shaxs kasbiy kamolotining mavjud imkoniyatlardan, ma'naviy ma'rifiy, axloqiy, psixologik yo'nalishdagi tadbirlardan samarali foydalanish, kasbiy kamolot sari intilishining psixologik jihatlarini yanada takomillashtirish masalasi nazariy, amaliy ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ta'lim jarayonida rivojlanishi to'g'risida to'xtalar ekan, amerikalik psixolog Dj. Bruner shunday yozadi: "Biz fanlarni dunyoga kichik jonli kutubxonalarni keltirish uchun emas, balki o'quvchining o'zini matematik fikrlash, muammolarni tarixchi misoli o'rganish, bilim olishda ishtirok etishga o'rgatish uchun o'qitamiz. Bilish – bu jarayon, mahsul emas". Bilamizki, bilish faoliyatining subyektivi o'quvchi hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiy pedagogik asoslarga ega bo'lgan ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga, o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilarga munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan³.

Xulosa. Boshlang'ich ta'limda ishlatiladigan metodlar bolalarning qiziqishini oshirish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun muhimdir. Har bir metodning o'ziga xos afzalliklari bor va ularni kombinatsiyalab qo'llash orqali ta'lim jarayoni yanada boyitilishi mumkin. O'qituvchilar ushbu metodlarni to'g'ri tanlab va qo'llab, bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mashkura Muxtor Qizi Sayliyeva BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-limda-innovatsion-texnologiyalardan-foydalanish-usullari> (дата обращения: 06.06.2024).
2. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/download/513/985>
3. <https://in-academy.uz/index.php/zdaf/article/download/20923/14052/19375>
4. www.ziyonet.uz

³<https://in-academy.uz/index.php/zdaf/article/download/20923/14052/19375>